



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-avgust


RAQAMLAR:

- Xizmatlar sohasida 207,5 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
- 2018 yil yanvar-avgust oylarida bozor xizmatlari hajmi 9 1460,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2790,3 ming.so'mni tashkil etdi.

Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasida 207,5 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 66,4 % ni tashkil etadi.

2018 yil 1 sentyabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), %




2018 yil yanvar-avgust oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 91460,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,8% ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	91460,0	108,8
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6299,9	116,9
Moliyaviy xizmatlar	12802,8	131,3
Transport xizmatlari	27434,6	104,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	13434,5	102,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2730,5	104,3
Savdo xizmatlari	25182,0	103,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2907,9	103,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	2582,7	109,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1285,0	114,9
Ijara xizmatlari	1977,7	108,7
Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1644,1	103,2
Shaxsiy xizmatlar	2369,9	102,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1327,2	133,0
Boshqa xizmatlar	2915,7	108,7

2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (33,0 %), moliyaviy xizmatlar (31,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (16,9 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (14,9 %) kabi xizmat turlarida yuqori o'sish qayd etildi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (102,2 %), kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (103,2 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (103,4 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

Transport sektorining holati mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini belgilaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayni paytda respublikada transportning mustaqilligi ta'minlanib, respublikaning barcha hududlarini bir-biri bilan bog'laydigan milliy tizim yaratilgan.

Transport xizmatlari umumiy hajmida eng yuqori ulushni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (49,0 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %



Quvurlar orqali tashish xizmatlari umumiy transport xizmatlarining 18,3 % ni tashkil etadi.


Temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar, transport xizmatlari umumiy hajmida 14,1 % ni egallaydi.

Tovarlar va yo'lovchilarni havo transportida tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmining 11,1 % ni tashkil etadi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 7,5 % ni tashkil qiladi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida eng katta ulush Toshkent shahri (16,7 %), Toshkent (13,7 %), Samarqand (11,8 %), Farg'ona (9,1 %), Andijon (8,7 %), Buxoro (7,4 %) va Qashqadaryo (7,2 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.


2018 yil yanvar-avgust oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning hududlar bo'yicha ulushi
(umumiy hajmga nisbatan), %



Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (1,7 %), Jizzax (2,7 %) va Navoiy (2,8 %) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,3 %) qayd etildi.


Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (88,7 %) etakchilik qilmoqda.

2018 yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (96,8 %) tashkil etadi.


2018 yil yanvar-avgust oylarida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligi va farovonligini ta'minlashga salmoqli ta'sir ko'rsatmoqda.

Moliyaviy xizmatlarning yuqori o'sish sur'atlari Jizzax (150,1 %), Surxondaryo (146,3%), Navoiy (144,0 %), Sirdaryo (135,4%) va Samarqand (133,2 %) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (139,1 %) kuzatildi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati, %




Moliyaviy xizmatlar bo'yicha boshqa hududlarga nisbatan pastroq o'sish sur'atlari Buxoro (120,1 %), Qashqadaryo (126,3 %), Toshkent (127,7 %), Xorazm (128,7 %) va Andijon (129,4 %) viloyatlarida qayd etildi.

Hududlar o'rtasida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar bo'yicha eng yuqori ulushni Sirdaryo (91,2 %), Surxondaryo (91,2 %), Samarqand (91,0 %), Qashqadaryo (91,0 %) va Jizzax (90,8 %) viloyatlari egallaydi.

Eng past ko'rsatkich Buxuro viloyatida (85,3 %) qayd etildi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



■ Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar


■ Sug'urta xizmatlari

■ Yordamchi moliyaviy faoliyat

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik xizmatlarni yanada rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning yangi turlarini kengaytirish, shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilash aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (86,8%) telekommunikatsiya xizmatlariga (kabel va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %




2018 yil yanvar-avgust oylarida jami aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 5,4 % nashriyot xizmatlariga to'g'ri keldi.

Kompyuterda dasturlashtirish xizmatlarining ulushi joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmining 3,2 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasini isloh qilish, o'qitish uslublariga innovatsion yondashuvlarni kengaytirish ta'lim sohasida ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining hajmini oshirishga katta ta'sir ko'rsatdi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 2582,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'sish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,8 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida ta'lim xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Hududlar o'rtasida ta'lim xizmatlarining umumiy hajmida eng yuqori ulushlar Toshkent shahri (43,4 %), Farg'ona (7,9 %), Samarqand (7,5 %), Andijon (6,5 %) viloyatlarida kuzatilmoqda.

Eng past ko'satkichlar Sirdaryo (1,6 %), Navoiy (2,3 %), Jizzax (2,4 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 82,9 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 17,1 % ga to'g'ri keladi.


2018 yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



2018 yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Toshkent shahrida 1159,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha eng past hajm Sirdaryo viloyatida 31,1 mlrd.so'm qayd etildi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida hududlar o'rtasida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori va eng past hajmlarini solishtirilishi, %



**2018 yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	91460,0	108,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2773,2	110,4
viloyatlar:		
Andijon	4999,1	107,2
Buxoro	3997,3	107,1
Jizzax	1976,6	114,1
Qashqadaryo	4373,0	107,3
Navoiy	2387,0	112,7
Namangan	3805,1	107,4
Samarqand	6166,1	107,7
Surxondaryo	3455,4	108,9
Sirdaryo	1199,3	108,8
Toshkent	6883,1	105,1
Farg'ona	5686,1	107,4
Xorazm	2710,6	107,2
Toshkent shahri	29475,1	113,2

Hududlar orasida eng katta hajm Toshkent shahri (29475,1 mlrd.so'm) va Toshkent viloyatiga (6883,1 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajm Sirdaryo (1199,3 mlrd.so'm) hamda Jizzax (1976,6 mlrd.so'm) viloyatlarida kuzatildi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida Jizzax (114,1 %), Navoiy (112,7 %) va Toshkent (113,2 %) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (110,4 %) o'tgan yilning mos davriga nisbatan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


2018 yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Toshkent (105,1 %), Buxuro (107,1 %), Xorazm (107,2 %), Andijon (107,2 %) va Qashqadaryo (107,3 %) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar orasida Toshkent shahri yetakchi o'rinni egallaydi. Toshkent shahrining ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 32,2 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Toshkent (7,5 %), Samarqand (6,7 %), Farg'ona (6,2 %) va Andijon (5,5 %) viloyatlari egallaydi.


**2018 yil yanvar-avgust oylarida respublikada
hududlarning ulushi**
(jami xizmatlar hajmida, %)



Boshqa hududlarga nisbatan eng past ulushlar Sirdaryo (1,3 %), Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,0 %) qayd etildi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2790,3 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida – 11907,2 ming so'm qayd etildi. 2017 yil yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati 11,3 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xizmat ko'rsatishning eng past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida - 1367,9 ming so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 106,6 % ni tashkil etdi.

Deyarli barcha hududlarda bozor xizmatlari hajmining oshishiga, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibida moliyaviy xizmatlar, savdo xizmatlari va transport xizmatlari kabi xizmatlar turlari ulushining ortishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2018 yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha jami xizmatlar tarkibida yuqori ulushga ega xizmat turlarini taqqoslanishi, %



Xizmatlar sohasi
statistikasi boshqarmasi

Tel: 230-80-59